

## O`quv jarayonida nazariya va amaliyot uyg`unligi

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha Prezidentimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni imzoladilar. Unga quyidagilar nazarda tutiladi:

- oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoiyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;
- oliy ta'lim muassasalarida o`quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;
- xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o`quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish.



Institutimizda ham ta'lim sifatini oshirish bo'yicha jadal ishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, Institutimizning 2019 - yil 30 - sentabrdagi 6-majlis bayonining 12-bandiga asosan ya'ni Institutda talabalarni 5+1 ( besh kun institutda va bir kun ishlab chiqarishda ) tizimi asosida o`qitishni joriy etish. Shunga muvofiq Institutimizning "Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" kafedrasining 409, 410, 410a va 411 guruhlarida kafedra professor-o`qituvchilari A.Sanbetova, A.Babayev, S.Namozov va A.Davirovlar hamrohligida "O`ZELEKTRTARMOQ" Unitar korxonasi 220/110/10 kv Keles podstansiyasida amaliyot darslarini olib borishdi. Talabalar o`zlarini qiziqtirgan savolarini berishdi va mas'ul xodim tomonidan yetarlicha javoblarini olishdi. Ustozlar ham korxonada ishchilari bilan birgalikda o`zlarini fikrlarini bildirdilar. Talabalar uchun dars judayam qiziq va ko'tarinki ruhda o'tdi.

"Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" kafedrasida assistenti Alisher Davirov axboroti

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov